


Qulupnayning *Fragaria Ananassa* Turining Foydali Xossalari Va Uning Eksporti

Karimova Suksuroy Otabek qizi

NamDU Magestranti

O'zbekistonda yetishtiriladigan rezavorlar orasida qulupnay hosildorligi va ekilish maydoni bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Mamlakatimizda hozirgi paytda qulupnayning barcha navlari bo'yicha 2022-yil hosili uchun 1,4 ming gektar qulupnay yetishtirilgan. Shu jumladan *Fragaria ananassa* turi keng tarqalgan hisoblanadi. Oktoploid o'stiriladigan qulupnay (*Fragaria ananassa*) 18-asrda Fransiyada *F.Virginiana* va *F.Chiloensis* o'rtasida tasodifiy chatishish yo'li bilan paydo bo'lgan rezavor meva hisoblanadi. Yevrosiya va Amerikada 50 turi ma'lum. O'zbekistonda qulupnayning jami 10 navi yetishtirilib kelinmoqda. Qulupnay turli iqlim doiralarga moslashuvchan bo'lib, yerning Qutb doirasidan to subtropik joylarga o'stiriladi. Shunga qaramay u issiq iqlim sharoitida yaxshi rivojlanadi. Mevasi to'q qizil rangga ega bo'lib, asosiy hosilini may-iyun oylarida yig'ib olinadi va hosil berishi oktabr oyining boshigacha davom etadi. Qulupnayda 5-10% uglevod (glyukoza, fruktoza, saxaroza), limon kislota, turli modda va fenol birikmalari bor. Vitaminlardan esa A,C,B va minerallardan: temir, kobolt, marganets, molibden va ftor mavjud. Shuningdek, qulupnaylarda bir necha sinfga kiruvchi flavonoidlar uchraydi (flavononlar, antosiyaninlar, flavonollar, flavan-3-ollar). Bu flavonoidlar fenilpropanoid yo'li orqali ishlab chiqiladi.

Qulupnayning qizil rangi qizil rangli antosiyaninlarning, pishishi davrida to'planishi bilan bog'liq. Antosiyan esa fenilpropanoid yo'lidan olingan flavanoidlardir. Antosiyanin mevaga rang berishdan tashqari sog'liq uchun foyda keltiruvchi antioksidant molekula hisoblanadi. Xususan, u ichaklarni tozalashda, jigar va buyrakning yaxshi ishlashiga, qabziyat va anemiyaga qarshi, buqoqning oldini olishda asosiy rol o'ynaydi. Bundan tashqari qulupnay kosmetologiya va parfumeriya sohasida ham keng qo'llaniladi. Masalan: yuzdagi ajinlarni yozishda yoki yuzdagi turli xil dog'lar va sepskillarni yo'qotishda ayrim kosmetik vositalaridan ko'ra ko'proq samara beradi. Shuningdek, bu o'simlikning foydalari bilan birga bir qancha zararli tomonlari ham ko'rishimiz mumkin. Masalan: oshqozon-ichak yo'llarida kasalligi (yallig'lanish), qon bosimi bor insonlar qulupnay yeyishi tavsiya etilmaydi va qulupnay turli xil allergiyalarni qo'zg'atuvchi o'simlik sifatida ommaga ma'lum.



1-jadval. 2020-yildan 2022-yilgacha bo'lgan qulupnay eksporti.

Hozirda mamlakatimizda qulupnay yetishtirish va uni eksport qilish bo'yicha Toshkent, Namangan, Farg'ona, Andijon, Samarqand viloyatlari yetakchi o'rinda turibdi.(1-jadval)

Zamonaviy issiqxonalarda yiliga o'rtacha 660 tonna qulupnay yetishtirilmoqda. Issiqxonalarining umumiy maydoni 41,5 gektarni tashkil etadi. Respublikamizda 2021-yilda qiymati 950 ming dollarlik 464 tonna, 2022-yil may holatiga ko'ra, qiymati 118 ming dollarlik 126 tonna qulupnay eksport qilingan. Hozirgi kunda asosan mamlakatimiz 5 ta davlatga qulupnay eksportini amalga oshiryapti ya'ni: Rossiya, Qirg'iziston, Qozog'iston, Birlashgan Arab Amirliklari va Tojikiston.



2-rasm. *Fragaria ananassa*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar Toshmuhammedov R.I
2. The role of WRKY transcription factors, *FaWRKY29* and *FaWRKY64*, for regulating Botrytis fruit rot resistance in strawberry (*Fragaria × ananassa* Duch.)
3. Google academy
4. Ribakov A.A, Ostroukova S.A, O'zbekiston mevachiligi.T, „O'qituvchi“, 1981.